



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(18)

2025



MUNDARIJA

TARIX 8

Klichev Oybek Abdurasuovich. 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloniga bo'lgan munosabat: qarash va talqinlar.....	8
Abdullayeva Dilfuza Abdujalilovna. Savdo majmualari – toqlardagi qayta tiklash va ta'mirlash amaliyoti tarixi.....	12
Islomova Sarvinoz Jasur qizi. Rim va German elementlari sintezi: Angliya yer egaligi jamiyati shakllanishiga ta'siri	16
Astanova Nasiba Qudratovna. Amir Temur va Xitoy munosabatlarida tibet va buddaviylikning o'rni va roli.....	20
Amonkeldi Axmadov. Buxoro adabiy muhiti tarixining qisqacha bayoni.....	25
Utayeva Feruza Xolmamatovna. Yengil sanoat tarmog'i bo'lgan to'qimachilik sanoati tarixi	29
Shodiyeva Shahlo Soliyevna. Buxoro amirligining tashqi aloqalarida Angliyadan uzoqlashish siyosati	35

FILOLOGIYA 41

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich. "Masnaviyi ma'naviy"ning mavzular mundarijasi va tuzilishi.....	41
Бабаева Шоира Баймуратовна, Хусейнова Асал Алишеровна. Особенности репрезентации лексической синонимии в художественном произведении (на материале произведений В. Распутина и В. Астафьева)	48
Adizova Nodira Baxtiyorovna. Ona tili darslarida kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish.....	53

PEDAGOGIKA..... 58

Rasulova Zilola Durdimurotovna. Muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanib talabalarning o'quv-biliv faoliyatlarini rivojlantirish	58
Hamdamova Nozima Muqimovna. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	65
Farmonova Shabon Muxamadovna. Kvalitologik yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish.....	70
Davronova Shaxlo Farmonovna. Oliy ta'lim muassasalari pedagog-kadrlarida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari	79
Odinayeva Zebiniso Ibroximovna. Gumanitar xavfsizlik davrida aksiologik mexanizmlarni shakllantirishning falsafiy-metodologik asoslari	82
Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich. Ona tili ta'limiga zamonaviy yondashuv: kognitiv-pragmatik usul.....	89
Матниязова Азиза Бахтияровна. Педагогическая модель развития проектных компетенций будущих учителей русского языка	93
Barno Ergasheva Ziyavitdin qizi. Bo'lajak tarbiyachilarda transversal-metodik kompetensiyani rivojlantirishning omillari.....	96
Uzoqboyev Xojiakbar Qobiljon o'g'li. Tarixiy yondashuvda ko'rgazmali materiallardan foydalanishning samaradorligi.....	99
Sharipova Hakima Shavkatovna. O'quvchilarda kreativ fikrlash va kompetentlikni rivojlantirishda ilg'or tajribalarning o'rni	102
Abdjalilova Ruxsora Nodirbek qizi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish usullari	106

Abdullayeva Dilfuza Abdujalilovna
Buxoro davlat universiteti
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SAVDO MAJMUALARI – TOQLARDAGI QAYTA TIKLASH VA TA'MIRLASH AMALIYOTI TARIXI

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning 20-30-yillarida Buxoro me'moriy obidalari–toqlarning ta'miroti masalasi Turkkomstaris tashkilotining faoliyatiga doir hujjatlar asosida yoritiladi. Savdo majmualari Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon hamda Toqi Telpakfurushon yodgorliklari bilan bog'liq ta'mirlash va qayta tiklash ishlari, muhofaza qilish, saqlash, qolaversa, ulardan foydalanish kabi jarayonlar misolida mavjud hokimiyatning munosabati ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'mirlash, obida, arxitektor, Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon, gumbaz, shahar xo'jalik qo'mitasi, shahar soveti.

ИСТОРИЯ РЕСТАВРАЦИОННЫХ И РЕМОНТНЫХ РАБОТ В ТОКАХ – ТОРГОВЫХ КОМПЛЕКСАХ

Аннотация. В данной статье на основе документов, связанных с деятельностью организации «Турккомстарис», освещается вопрос ремонта архитектурных памятников Бухары в 20-30-х годах XX века. Отношение существующих властей также анализируется на примере таких процессов, как ремонтно-реставрационные работы, охрана, хранение и, более того, их использование в связи с памятниками торговых комплексов Токи Заргарон, Токи Саррофон и Токи Тельпакфурушон.

Ключевые слова: ремонт, памятник, купол, архитектор, Токи Заргарон, токи Саррофон, Токи Телпакфурушон, городской хозяйственный комитет, городской совет.

THE HISTORY OF RESTORATION AND REPAIR WORK IN THE TRADING DOMES

Annotation. Based on documents related to the activities of the Turkcomstaris organization, this article highlights the issue of repairing architectural monuments in Bukhara in the 20-30s of the twentieth century. The attitude of the existing authorities is also analyzed using the example of such processes as repair and restoration work, protection, storage and, moreover, their use in connection with the monuments of the trading domes Toki Zargaron, Toki Sarrofon and Toki Telpakfurushon.

Keywords: repair, monument, dome, architect, Toki Zargaron, Toki Sarrafon, Toki Telpakfurushon, city economic committee, city council.

Kirish. Qadimdan tijorat markazlaridan biri sifatida dunyoga tanilgan Buxoro shahri me'morchiligida savdo inshootlarining qurilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu, ayniqsa, Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida shahar savdosiga aloqador binolar – tim va toqlarning bunyod etilganligida ham ko'zga tashlanadi. Savdo toqlari xususidagi ma'lumotlar poytaxt Buxoroga tashrif buyurgan missiya vakillari, elchi, sayyohlarning xotiralarida qayd etilgani ma'lum.

XX asr boshlarida ham ushbu me'moriy yodgorliklar bir guruh o'lkashunos, arxeolog, etnograf, tarixchi va arxitektorlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Ular tomonidan yaratilgan nashrlarda, asosan, savdo majmualarining qurilish tarixi, ularning shahar topografiyasidagi o'rni, Buxoroda hukmronlik qilgan sulolalar iqtisodiyotidagi ahamiyati o'rganilgan. Shunday bo'lishiga qaramay, bu turdagi inshootlarning ta'miri, unga mas'ul muassasalar faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar keng ilmiy jamoatchilikka hali yetarli darajada ma'lum emas. Shundan kelib chiqib,

biz XX asrning birinchi yarmida Buxoro shahridagi savdo majmualarining ta'mirlanishi bilan bog'liq faoliyat tarixini unga mas'ul tashkilotlarga tegishli birlamchi manbalarga asoslanib tadqiq etishni lozim topdik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XX asrning 20-30-yillarida Buxoro me'moriy obidalari –toqlarning ta'mirlanishi va ushbu jarayon bilan bog'liq masalalarni o'rganishda arxiv hujjatlari birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Milliy arxivining Turkkomstaris va Sredazkomstaris –R-394-fondning 261, 266, 309 – yig'majildlarida hamda Uzkomstaris-2296-fondning 9, 16, 62, 121, 239, 271 - yig'majildlarida Savdo majmualari – toqlardagi qayta tiklash va ta'mirlash amaliyoti tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud. Ushbu manbalarning tahlili Buxoro tarixiy yodgorliklarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, qayta tiklash ishlariga munosabat masalasi aks etganligini ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. XX asrning birinchi yarmida Buxoro me'moriy obidalari – toqlarning ta'mirlanishi bilan bog'liq masalalar mazkur usullar yordamida yoritildi.

Natija va muhokamalar. Tadqiqotimiz mobaynida, bu turdagi me'moriy yodgorliklar ta'mirlanishi bilan bog'liq tadbirlar o'ziga xos jihatlarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Yodgorliklar ta'mirlanishi uchun dastlabki va zaruriy bosqich bu ularning tarixiy obyekt sifatida ro'yxatga olinishi hisoblanib, Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon, Toqi Sarrofon hamda Timi Abdullaxon bilan bog'liq bu jarayon 1927-yil mart oyida amalga oshirilgan[1]. O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya qo'mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining 1927-yil 6-noyabrda 128-son qaroriga muvofiq esa mazkur me'moriy obidalar ta'mirlash obyekti sifatida Sredazkomstaris tasarrufiga berilgan. Bunga qadar ushbu yodgorliklar Buxoroning Eski shahar xo'jalik yurituv tashkiloti ixtiyorida edi. Shu vaqtdan e'tiboran, Toqi Zargaron hamda Toqi Sarrofon yodgorliklaridan foydalanish evaziga olinadigan mablag'lar ham Buxkomstaris ixtiyoriga o'tkazila boshlandi. Ushbu yilning o'zidayoq Toqi Zargaronda qayta tiklash ishlari boshlanib, tom va gumbaz qismlari, janubi-g'arbiy devorlari hamda poydevor qismi ta'mirlangan[2].

Buxoro shahar arxitektori V.V.Nekoz, shahar obodonlashtirish bo'limi mudiri N.F.Lapi, ish boshqaruvchilar I.X.Svirin va B.Ilevitov hamda Buxkomstaris ilmiy kotibi B.I.Butkevichlar ishtirokida Toqi Telpakfurushonning ta'mirlalab ahvoli xususida dalolatnoma tuziladi. 1927-yil 3-oktabrda rasmiylashtirilgan mazkur hujjatda toqning asosiy yirik gumbazida va beshta kichik gumbazlarida darz ketish, teshilish hollari uchrashi qayd etilgan. Shuningdek, yodgorlik holatidan kelib chiqib, unga tutash guzar yo'llarini to'sish hamda toq atrofini me'moriy ahamiyatga ega bo'lmagan turli qurilishlardan va telefon liniyalari (aloqa simlari)dan tozalash ishlari chora-tadbir sifatida belgilanadi. Biroq, moliyaviy ta'minotdagi yetishmovchilik sabab, ishlar bajarilmasdan qolgan. Buni 1928-yilda Sredazkomstarisning Buxorodagi arxeologik izlanish va ta'mir ishlari holatini tekshirish topshirig'i yuzasidan amalga oshirilgan I.I.Umnyakov tashrifidan ham bilish mumkin[3]. Tashrif davomida olim tomonidan tayyorlangan hisobot matnidan Telpakfurushon toqining kechiktirilmagan ta'mirlanadigan yodgorliklar ro'yxatiga kiritilgani ma'lum bo'ldi.

Uzkomstarisning 1928-yil 5-sentabrdagi 17-son yig'ilish bayonnomasining tahlilidan ham ushbu yillarda Telpakfurushon hamda Sarrofon toqlarida bir qadar ta'mir ishlari olib borilganligi aniqlandi. Bayonnomaga kiritilgan M.M.Svibakning Buxoroga amalga oshirgan ilmiy safari xususidagi ma'ruzasida ta'mir ishi mazkur toqlarning tom va gumbaz qismlarini o'z ichiga olganligini ko'rsatadi[4]. Zargaron toqining asosiy gumbaz qismida ham ta'mirlash va qayta tiklash ishlari olib boriladi. Shuningdek, bir nechta yon tomon gumbazlari hamda o'tish yo'laklari ham mustahkamlanganligini o'z davrida muhurlangan fototasvirlar ham tasdiqlaydi.

Tahlillardan, toqlarda amalga oshirilgan mazkur ta'mirlash ishlari ularning tarixiy-me'moriy qimmatini sababidan emas, balki aholi serqatnov harakat yo'nalishida joylashganligi zarurati yuzasidan bajarilganligi ko'rinadi. Chunki, ushbu yildagi ta'mir ishlari bilan bog'liq deyarli barcha hujjatlarda bu asosiy sabab sifatida keltiriladi.

Buxkomstaris tashabbusi bilan 1930-yilda ham Toqi Telpakfurushon hamda Toqi Zargaronda birlamchi zaruriy ta'mirlash ishlari olib boriladi. Bunda maxsus mablag'lar tushumi

14 va davlat budjetidan Telpakfurushon toqi uchun 7418 rubl 48 tiyin, Toqi Zargarondagi qayta tiklash ishlariga esa 10.145 rubl miqdorida mablag' jalb etilgan[5]. Mazkur ta'mir ishi asosan barcha gumbazlarni mustahkamlashdan iborat bo'ldi. 1932-ta'mir yilida Sarrofon toqining ichki devorlarini suvoqlash ishlari bajariladi. Ta'mirga oid smeta hujjatlaridan ushbu maqsadda 1367 rubl 88 tiyin xarajat qilinganligi ma'lum[6].

Savdo majmualari – toqlarning XX asr 30-yillariga doir ta'mirlanish masalasi tarixiga oid ma'lumotlardan, ularning shahar soveti tomonidan shahar xo'jalik qo'mitasi (Горкомхоз) tasarrufiga berilganligi ma'lum bo'ldi. Keyinchalik, 1934-yilda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti qaroriga tayanib, savdo toqlari, tim va qadimiy hammom foydalanish uchun Buxoro shahar kommunal xo'jaligi bo'limi ixtiyoriga beriladi.

Buxkomstarisning mas'ul xodimlari ishtirokida 1937-yilda savdo toqlarining texnik holati bo'yicha dalolatnoma tuzilib, ularni shoshilinch ravishda ta'mirlash uchun 30.000 rubl miqdorda mablag' zarurligi aniqlangan[7]. Biroq, izlanishlarimiz belgilangan mablag' ajratilmagani va hech qanday ta'mir ishlari bajarilmaganini ko'rsatmoqda. Qolaversa, Uzkomstarisning 1939-yil 23-noyabr sanasida bo'lib o'tgan Ilmiy texnik kengashida ko'rilgan masalalarda oxirgi besh yil muddatda (1934-1939-yillar nazarda tutilyapti – D.A.) savdo toqlarida biror marotaba ta'mirlash, qayta tiklash ishlari, hatto obodonlashtirish ham olib borilmaganligi qayd etiladi. Natijada, Zargaron, Sarrofon va Telpakfurushon toqlari Buxoro shahar sovetidan yana qaytib Buxkomstaris ixtiyoriga berilishi masalasi muhokama qilinadi.

Ta'kidlash joizki, mazkur savdo inshootlarining Buxorodagi sayyohlar uchun asosiy ko'rsatma yo'nalish (marshrut) jadvaliga kiritilishi ham ularning ta'miri, qayta tiklanishini ta'minlagan omil bo'la oldi. Buxkomstaris topshirig'i bilan 1939-yilda arxitektori B.N.Bachinskiy rahbarligida Buxoro viloyat qurilish nazorat inspektori va mutaxassislar ishtirokida Zargaron toqida amalga oshirilishi zarur ishlar ko'lami belgilanadi. Tuzilgan dalolatnoma asosida toqning shimoli g'arbiy qismidagi gumbazlari, devori va ravoqlarida ta'mir ishlari olib borilgan. Moliyaviy hujjatlar ushbu ishlar ko'lami uchun 10.400 rubl summa ajratilganligini ko'rsatadi. Shuningdek, Telpakfurushon toqida 10.724 rubl 77 tiyin yuzasidan qayta tiklash, mustahkamlash ishlari bajarilib, Toqi Sarrofonning ta'mirlanishi uchun 10.000 rubl mablag' ajratiladi[8].

Ammo, 1939-yil aprel-may oylarida O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining maxsus komissiyasi savdo majmualari binolarining ahvolini o'rganib, ko'rilayotgan choralarga qaramay Uzkomstaris o'z tasarrufigidagi yodgorliklardan to'g'ri foydalanmayotganini aniqlaydi. Tekshirish natijasida ma'lum bo'lganidek, ko'pgina masjid va madrasalar bilan birga savdo timi va toqlari yodgorliklarga sira aloqasi bo'lmagan tashkilotlarga turar joy, omborxonalar sifatida foydalanish uchun ijaraga berilgan. Jumladan, Abdullaxon timi shakar savdosi omboriga aylantirilgan edi[9]. O'rganishlarimiz natijasida, savdo toqlari ijarasi uchun quyidagi yuridik shaxslar bilan uch tomonlama shartnoma imzolanganligi ma'lum bo'ldi. Toqi Telpakfurushonda Art-Uzbekistan, Konx-Qizil-Paxtakor, Art-Yulduz, Kamolov Usta Xolid, Babadjanov Sh; Toqi Sarrofondan Aleksandrovskiy, Sinxayev, Art-Krasnim Zvezda, Narzullayev Sharif, Narzullayev Fayzi; Zargaron toqida esa Art-Xurshid kabi shaxslar va tashkilotlar ijaradorlik asosida faoliyat olib borgan[10]. Tabiiyki, ijara shartnomasi bandlarida qayd etilganiga qaramay, obidalarni saqlash va ularni ta'mirlash masalasi e'tibordan chetda qolgan.

Xulosa. Tahlillar natijasida, XX asrning 20-30-yillarida savdo majmualari– toqlarda amalga oshirilgan ta'mirlash ishlari muayyan omillar asosida bajarilganligi ham aniqlandi. Aholi serqatnov harakat yo'nalishida joylashganligi, sayyohlar uchun asosiy ko'rsatma yo'nalish (marshrut) jadvaliga kiritilishi, davlat muhofazasidagi yodgorliklar sifatida ro'yxatga olinishi sabab, mazkur yodgorliklarda ta'mirlash va qayta tiklash tadbirlari amalga oshirilgani kuzatildi. Belgilangan taftish-nazorat komissiyalarining hisobot hujjatlari hamda ta'mirlashga mas'ul tashkilotlarning o'zaro yozishmalarini tadqiq etish orqali, mutasaddilarning beparvoligi va loqaydligi, moliyaviy ta'minotdagi uzilishlar kabi bir qator sabablardan toqlarda bajarilgan ta'mir ishlari salmog'i va sifatining bu kabi inshootlarning saqlovi uchun yetarli bo'lmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy arxivi (keying o'rinlarda - O'zbekiston MA), R-394-fond, 1-ro'yxat, 266-yig'majild, 45-varaq.
2. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'majild, 54-58-varaqlar.
3. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 261-yig'majild, 116-varaq.
4. O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 261-yig'majild, 91-varaq.
5. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 16-yig'majild, 15-varaq.
6. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 62-yig'majild, 15-17-varaqlar.
7. Buxoro VDA, 837- fond, 1-ro'yxat, 10-yig'majild, 1-2-varaqlar.
8. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 271-yig'majild, 51-, 56-57-varaqlar.
9. Buxoro VDA, 837- fond, 1-ro'yxat, 16-yig'majild, 2-varaq.
10. Buxoro VDA, 836- fond, 1-ro'yxat, 17-yig'majild, 198-varaq.